ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

TIL VA JAMIYAT: GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY TIL MASALASI

Tursunova O'g'iloy Ulug'bek qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23885694

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada globallashuv jarayonining milliy til rivojiga ta'siri va o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni yoritilgan. Unda davlat tilining huquqiy maqomi, ta'lim va ilm-fan sohalarida qo'llanilishi hamda zamonaviy raqamli muhitdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar nutqida xorijiy so'zlarning ko'payishi, yozma savodxonlik va adabiy til me'yorlariga rioya qilish masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda sotsiolingvistik, qiyosiy-tahliliy va tavsifiy yondashuvlardan foydalanilib, milliy til taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Maqolada o'zbek tilining ilmiy terminologiyasini rivojlantirish, raqamli resurslarini kengaytirish va til madaniyatini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Xulosa sifatida milliy tilni asrash va rivojlantirish xorijiy tillarni o'rganish bilan uyg'un holda olib borilishi zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: globallashuv, milliy til, o'zbek tili, til va jamiyat, sotsiolingvistika, davlat tili, til siyosati, til madaniyati, ilmiy terminologiya, raqamli kommunikatsiya.

KIRISH. XXI asr globallashuv til sohasiga ham sezilarli ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Axborot almashinuvining tezligi, xalqaro mehnat migratsiyasi hamda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida ayrim tillar ta'sir doirasi kengayib, ba'zilari iste'moldan chiqmoqda. Globallashuv sharoitida umumjahon muloqot vositasi sifatida ayrim tillarning (xususan, ingliz tilining) mavqeyi keskin oshib borayotgani sari kichik va o'rta tillarning qo'llanishini cheklab qo'ymoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi yetti mingga yaqin tilning bir qismi yo'qolib ketish xavfi ostida va jahon aholisining qariyb 40%i o'zi tushunadigan tilda ta'lim olish imkoniyatidan mahrum hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, uning qonuniy poydevori yaratilgan. Shunga qaramay, hozirgi raqamli texnologiyalar va tezkor globallashuv davrida milliy tilimizning jamiyatdagi o'rnini kuchaytirish, uni zamonaviy ilm-fan talablariga moslash hamda tashqi lingivistik ta'sirlardan asrash eng muhim-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga yoshlar nutqida xorijiy tillarning ko'payishi, reklama peshtaxtalaridagi adabiy me'yorlarning buzilishi va yozishmalardagi xatoliklar jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida yoshlar chet tillarini o'rganish bilan birga ona tili va ma'naviyatni asrash zarurligi haqida fikrni muhokama uchun yoritib ketgan. Maqolaning maqsadi sifatida, globallashuvi sharoitida milliy tilning jamiyatdagi o'rnini tahlil qilish, o'zbek tilining rivojlanish imkoniyatlari va mavjud muammolarini yoritish va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga oid takliflarni ishlab chiqish kabi ustuvor ko'nikmalarni aytishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, milliy tilning hayotdagi o'rni hamda globallashuvning til taraqqiyotiga ta'siri tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi. Mazkur masalalarni ilmiy jihatdan o'rganishda sotsiolingivistika, til

siyosati, lingvokulturologiya va zamonaviy kommunikatsiya bilan bog'liq nazariy qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.Safarovning sotsiolingivistika yo'nalishidagi ishlari til va jamiyat munosabatlarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Sotsiolingivistik yondashuv tilni faqat grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki muayyan ijtimoiy muhitda faoliyat yuritadigan aloqa vositasi sifatida o'rganish imkonini beradi. Undan tashqari, til va jamiyat o'rtasidagi munosabat qadimdan o'rganilib kelingan. Bu masalaga birinchilardan bo'lib, Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy va fors tillarini solishtirib, ona tilining boyligi va ifoda imkoniyatlarni asoslab bergan, uni ilm va adabiyotda qo'llashga to'la layoqatli til sifatida ko'rsatgan. Mustaqillik yillarida milliy til masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi.

I.Karimov tilni millatning ma'naviy mulki va o'zligining ifodasi sifatida baholab, uni asrash va rivojlantirish jamiyatning umumiy vazifasi ekanligini ta'kidlagan. Sh. Mirziyoyev asarlarida esa ona tili masalasi yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat va chet tillarini o'rganish bilan bog'liq holda, zamonaviy rivojlanish strategiyasi doirasida yoritiladi. Bu qarashlar "Davlat tili haqida"gi Qonun va 2019-yilgi Farmon kabi hujjatlarda amaliy ifodasini topgan. Mavzuni o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi: kontent-tahlil, qiyosiy-tahliliy va sotsiolingvistik kuzatuv usullari hamda ma'lumotlarni tavsiflash va umumlashtirish. Tadqiqotning nazariy asosini tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyatlari, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar hamda til siyosatiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Xususan, Sh. Safarovning sotsiolingvistikaga oid ishlari tilning jamiyat bilan aloqasini o'rganishda muhim nazariy manba sifatida qaraldi. Hujjatlarni o'rganish usuli orqali O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni va o'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan PF-6084-son Farmonining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar milliy tilning huquqiy maqomi, uni ta'lim va ilm-fan sohalarida rivojlantirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalariga integratsiyalashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil globallashuvning til rivojiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlashga xizmat qildi. Jumladan, xorijiy tillarni o'rganish orqali bilim va axborot almashinuvining kengayishi bir tomondan, milliy tildagi ilmiy va raqamli materiallarga bo'lgan ehtiyojning ortishi ikkinchi tomondan ko'rib chiqildi. Tavsifiy yondashuv yordamida esa kundalik muloqot, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan til hodisalari izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Globallashuv sharoitida milliy tilning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish natijasida o'zbek tilining jamiyatdagi mavqeyi bir necha muhim yo'nalish bilan bog'liqligi aniqlandi. Bular davlat tilining huquqiy maqomi, ta'lim va ilm-fan sohalarida qo'llanilishi, zamonaviy terminologiyaning rivojlanishi hamda raqamli muhitda faol ishlatilishidir. Mazkur yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligi milliy tilning rivojlanishini faqat qonuniy jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmasdan, uning amaliy imkoniyatlarini ham kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Birinchidan, o'zbek tilining huquqiy maqomi uning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash uchun muhim asos hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni va o'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati tilning ta'lim, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq huquqiy asoslarning mavjudligi tilning barcha sohalarda bir xil darajada rivojlanganini anglatmaydi. Shu sababli davlat tiliga oid talablarning amaliyotda bajarilishi, rasmiy hujjatlarda adabiy til me'yorlariga rioya etilishi va o'zbek tilidagi sifatli axborot materiallarining ko'payishi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, o'zbek tilining ilm-fan va ta'limdagi imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi aniqlandi. Zamonaviy ilmiy bilimlar, texnologiyalar va yangi kasbiy tushunchalarni o'zbek tilida tushunarli ifodalash uchun sohaviy lug'atlar, sifatli darsliklar va ilmiy adabiyotlar muhim vosita hisoblanadi. Ayrim yangi

tushunchalarning o‘zbek tilidagi muqobillari yetarlicha ommalashmagan holatlarda boshqa tillardagi atamalardan foydalanishga ehtiyoj ortishi mumkin. Shuning uchun ilmiy terminlarni tartibga solish, ularning mazmunini aniq belgilash va ta’lim jarayonida bir xil shaklda qo‘llash milliy tilning ilmiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, globallashuv va raqamli kommunikatsiya yoshlarning til odatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqartmalar, chet tillaridan o‘zlashgan so‘zlar va norasmiy yozish shakllaridan foydalanish keng tarqalgan. Bunday holatlarning barchasini salbiy deb baholash to‘g‘ri emas, chunki tillar o‘zaro ta’sir orqali yangi so‘z va tushunchalar bilan boyib boradi. Asosiy muammo norasmiy yozishmalarda qo‘llanadigan shakllarning rasmiy hujjatlar, ilmiy ishlar va ta’lim topshiriqlariga ko‘chishi natijasida imlo hamda uslub me’yorlarining buzilishidir. Demak, yoshlar orasida savodli yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va adabiy til me’yorlarini amaliy misollar orqali o‘rgatish muhim vazifa hisoblanadi.

To‘rtinchidan, xorijiy tillarni o‘rganish va milliy tilni rivojlantirish bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar emasligi aniqlandi. Xorijiy tillarni bilish xalqaro ilmiy manbalardan foydalanish, yangi tajribalarni o‘rganish va boshqa xalqlar bilan muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida mustaqil fikrlash, ilmiy matnlar yaratish va murakkab tushunchalarni ravon ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham zarur.

Shunday ekan, ko‘p tillilikni milliy tilning o‘rnini bosuvchi hodisa sifatida emas, balki uning rivojlanishi bilan uyg‘unlashtirilishi lozim bo‘lgan imkoniyat sifatida baholash maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA. Globallashuv sharoitida milliy tilning rivojlanishi til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Til jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi vosita bo‘lish bilan birga, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy tajribani avloddan avlodga yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o‘zbek tilining bugungi holatini baholashda uning huquqiy maqomi bilan bir qatorda, kundalik muloqot, ta’lim, ilm-fan va raqamli texnologiyalardagi qo‘llanish imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim.

Sh. Safarovning sotsiolingvistikaga oid qarashlari tilni ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini anglashga yordam beradi. Sotsiolingvistik yondashuv asosida qaralganda, tilning jamiyatdagi mavqeyi faqat uning grammatik tuzilishi yoki lug‘at boyligi bilan belgilanmaydi. Bunda asosiy vazifa yangi til hodisalarini inkor etish emas, balki ularning adabiy til me’yorlari va nutq madaniyatiga ta’sirini to‘g‘ri baholashdan iborat. O‘zbek tilining rivojlanishi masalasida davlat tomonidan belgilangan vazifalar ham alohida ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadlarga erishishda ilmiy terminologiyani takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. H. Dadaboyevning O‘zbek terminologiyasi asarida yoritilgan terminologik masalalar sohaviy tushunchalarni aniq ifodalash va o‘zbek tilining ilmiy imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Globallashuv natijasida fan, axborot texnologiyalari va iqtisodiyotga oid yangi tushunchalar muntazam ravishda paydo bo‘lmoqda. Ularni o‘zbek tilida to‘g‘ri ifodalash, mavjud muqobillarni tartibga solish va zarur hollarda yangi atamalarni shakllantirish ilmiy muloqotning tushunarliligini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda qabul qilingan terminlardan foydalanishda ularning mazmuni va o‘zbek tilidagi qo‘llanish xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Globallashuvning yana bir muhim jihati raqamli kommunikatsiya bilan bog‘liq. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning axborot olish hamda fikr almashishida muhim vositaga aylangan. Bunday muhit o‘zbek tilidagi ta’limiy materiallar, elektron lug‘atlar va ilmiy-ommabop kontentni keng tarqatish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq norasmiy yozishmalarda uchraydigan qisqartmalar va imlo me’yorlariga rioya qilmaslik holatlari rasmiy hamda ilmiy yozuvga ko‘chmasligi

kerak. Shu bois ta'lim muassasalarida savodli yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'zbek tilidagi sifatli raqamli resurslarni ko'paytirish va til madaniyatini targ'ib qilish dolzarb vazifalardandir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy tilni rivojlantirish xorijiy tillarni o'rganishga qarshi qo'yilmasligi kerak. Xorijiy tillarni bilish yangi bilimlarni o'zlashtirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'zbek tilida mustaqil fikrlash, ilmiy matnlar yaratish va zamonaviy tushunchalarni ifodalash imkoniyatlari ham kengaytirilishi zarur. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida akademik yozuvni rivojlantirish, sohaviy lug'atlardan foydalanish va o'zbek tilidagi ilmiy nashrlar sifatini oshirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, ko'rib chiqilgan manbalar va tahliliy mulohazalar milliy tilning globallashuv sharoitidagi mavqeyi huquqiy qo'llab-quvvatlash, ilmiy-terminologik rivojlanish va jamiyatning til madaniyati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, til har bir xalqning o'zligini namoyon etuvchi, uni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi muhim qadriyatdir. Bugungi globallashuv davrida turli tillarni o'rganish va ulardan foydalanish tabiiy jarayon hisoblanadi. Biroq bu jarayonda ona tiliga bo'lgan e'tiborni susaytirmaslik lozim. O'zbek tilining kelajakdagi rivoji, avvalo, undan qanday foydalanishimizga bog'liq. Har bir inson o'z nutqiga e'tibor berishi, so'zlarni o'rinli ishlatishi va yozma savodxonligini oshirib borishi kerak. Ayniqsa, yoshlar orasida kitob o'qish, o'zbek tilida ijod qilish va mazmunli fikrlarni ravon ifodalashga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish muhimdir.

Shuningdek, milliy tilni rivojlantirish faqat davlat yoki ta'lim muassasalarining vazifasi emas. Bu har birimizdan mas'uliyat talab qiladigan jarayondir. Ona tiliga hurmat uni faqat qadrlash bilan emas, balki kundalik hayotda to'g'ri va faol qo'llash bilan namoyon bo'ladi. Zero, tilga e'tibor - millatning o'z tarixiga, madaniyatiga va kelajagiga bo'lgan e'tiboridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. – 1989-yil 21-oktabr (amaldagi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.
5. Elova D., Safarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2022. 38 B